



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI FANLAR AKADEMIYASI  
O'ZR FA YOSH OLIMLAR KENGASHI  
O'ZR FA BIRLASHGAN KASABA UYUSHMASI QO'MITASI**

**AXBOROT XATI**

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024-yil 18-yanvardagi №16-son buyrug'iga muvofiq O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining prezidiumida **“Uchinchi Renessans yosh olimlari: zamonaviy vazifalar, innovatsiya va istiqbol”** mavzusidagi Xalqaro ilmiy – amaliy anjuman **2024-yil 3-may** kuni o'tkaziladi.

**Xamkor tashkilotlar:**

Toshkent iqtisodiyot va pedagogika instituti,

O'ZR FA birlashgan kasaba uyushmasi qo'mitasi.

Mazkur anjumanda xorijiy va respublika miqiyosida faoliyat yuritayotgan mutaxassis olimlar, shu sohada izlanishlar olib borayotgan doktorantlar, tadqiqotchilar, magistrantlar va boshqa mutaxassislar ishtirok etishi ko'zda tutilgan.

**Barcha maqolalarga DOI raqami beriladi va Google Scholar bazasida indekslanadi!!!**

**Anjuman quyidagi yo'nalishlarda ish olib boradi:**

1. Fizika-matematika va texnika fanlari (tegishli sohalarda).
2. Tabiiy fanlar (tegishli sohalarda).
3. Ijtimoiy va gumanitar fanlar.

Konferentsiyaga taqdim etilayotgan ilmiy maqolalarga qo'yiladigan talablar va rasmiylashtirish tartibi:

- Maqola va tezislarning hajmi 3 betdan kam va 5 betdan ko'p bo'lmagan hajmda Microsoft Word, Times New Romanda 14 shriftida, 1,5 intervalda, chap tomondan 3 sm, o'ng tomondan 1,5 sm, yuqori va past tomondan 2 sm qoldirilgan holda yoziladi. Faylni muallif(mualliflar bir nechta bo'lsa, birinchi muallif)ning familiyasi bilan nomlanadi.
- tezis mavzusi bosh harflarda (14 shriftida) o'rta yozilib, keyingi satrda muallif(lar)ning ism-sharifi, ilmiy darajasi, unvoni, ish joyi va lavozimi. Undan 1,5 interval pastda xat boshidan tezis matni yoziladi;
- barcha iqtiboslar kvadrat qavsda beriladi [3.112-b];
- foydalanilgan adabiyotlar tezis yoki maqola oxirida alfavit tartibida keltiriladi;
- tezis elektron nusxada topshiriladi;
- Konferentsiya materiallari elektron shaklda 2024-yil 10-aprelga qadar +99893-532-11-41 telefon raqamiga [https://t.me/TIPI\\_Tillaeva](https://t.me/TIPI_Tillaeva) telegramm akkaunti orqali kirill yozuvida qabul qilinadi.

Tashkiliy qo'mita konferentsiya maqsadiga mos kelmaydigan diniy va siyosiy mazmundagi materiallarni rad etish huquqini o'zida saqlab qoladi.

Tashkiliy qo'mita maqola va tezislarni tahrir qilish huquqiga ega, ekspertlar xulosasiga ko'ra talabga javob bermaydigan va originalligi 70% dan kam ko'rsatkichli materiallar qabul qilinmaydi. Tezis va maqolalarning mazmuni va haqqoniyligi uchun mualliflar javobgardirlar. To'plamda e'lon qilinadigan maqola va tezislarning uchun badal puli kelishilgan narxda.

Konferentsiya materiallari asosida to'plam tayyorlanadi. To'planning elektron nusxasi O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi va O'zR FA Yosh olimlar kengashi veb-saytlari (<http://academy.uz>, <http://yokacademy.uz>)ga joylashtiriladi.

Konferentsiya doirasida **“Eng yaxshi maqola” nominatsiyasi bo'yicha tanlov** o'tkazilib, g'olib mualliflarning materiallaridan uch nafari O'zR FA **“Yosh olimlar jurnali”**da (OAK tasarrufida) imtiyozli ravishda chop etiladi.

---

***Tashkiliy qo'mita manzili:***

---

**O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi**

**Toshkent shaxri, Yashnobod tumani,**

**Ya.Gulyamov ko'chasi, 70-uy**

**Murojaat uchun tel:**

f.f.n, dotsent G.H.Tillaeva

**Telefon:** (99893) 532-11-41.

**Telegram:** @smu\_us (99893) 532-11-41